Energiya tejamkorligi va innovatsion g‘oyalar

2018-yil 25-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti tashabbusi bilan tashkil qilingan «Qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanish: yangi tadqiqotlar, texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani o‘z ishini boshladi. Unda respublikamizdan, shuningdek, AQSH, Germaniya, Rossiya hamda Ukraina kabi davlatlardan yetakchi olimlar ishtirok etdi.

Ilmiy-amaliy anjumanning birinchi kunida qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanishning zamonaviy fundamental va amaliy masalalari, energiyani bir turdan boshqa turga o‘zgartirish jarayonlarini modellashtirish, ularning ekologik jihatlari, innovatsion texnologiyalar va o‘qitish uslublari kabi mavzularga tegishli keng qamrovli masalalarga bag‘ishlangan ma’ruzalar tinglandi.

FAQAT ILM VA MA'RIFAT, INTELLEKTUAL SALOHIYAT
HAR TOMONLAMA BILIMLI KADRLAR HISOBIDAN
BIZ O'ZBEKISTONNI YANGI TARAQQIYOT
BOSQICHIGA OLIB CHIQA OLAMIZ.
SH.MIRZIYOYEV